



## “TASDIQLAYMAN”

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat  
universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha  
prorektor  H. Xushvaqto  
2023-yil “”

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti iqtidorli  
yoshlarining g'oya va loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida doktorant,  
magistr hamda talaba qizlar - o'rtasida o'tkaziladigan “Ayollar biznesiga  
birinchi qadam” tanlovi**

### NIZOMI

#### 1. Umumiy qoidalar

1.1 Mazkur tanlov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'ila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 7-martdagi PF-87 Farmonida belgilangan topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida” 222-son qarorining 2-ilovasi “Bo'lajak olim” tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomida belgilangan talablarga muvofiq o'tkaziladi.

#### 2. Maqsad va vazifalar

2.1 “Ayollar biznesi uchun birinchi qadam” tanlovning asosiy maqsadi – iqtidorli va iste'dodli xotin-qizlar, ayollar va yosh olimalarning innovatsion faoliyati natijalari va tashabbuslarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning ilmiy izlanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish hamda salohiyatli yoshlarni ilm-fanga keng jalb etishdan iborat.

#### 3. Tanlov shartlari

3.1. Taqdim etilgan biznes loyihalar tanlov talablariga qat'iy rioya qilinganligi, loyiha materiallarining ishonchliligi va haqqoniyligi, ko'chirmachilikka (plagiat) yo'l qo'yilmaganligi, belgilangan talablar asosida shakllantirilganligi bo'yicha dastlabki texnik ekspertizadan o'tkaziladi.

#### 4. O'tkaziladigan sanalar

- 4.1. Loyihalarni qabul qilish: 1-dekabrdan 25-dekabrgacha;
- 4.2. Loyihalarni ekspertizadan o'tkazish: 26-dekabrdan 30-yanvargacha
- 4.3. G'olib bo'lgan loyihalarni rag'batlantirish: 5-fevral

## **5. Topshiriladigan biznes loyiha shartlari:**

- 5.1. Loyiha ijrochilarining tarkibi ularning ilmiy darajasi, unvoni, mansabidan qat'iy nazar 40 yoshdan oshmagan universitet xotin-qizlardan iborat bo'lishi;
- 5.2. Har bir jamoa tarkibi 3 nafar izalanuvchidan oshmasligi va 1 ta loyiha bilan ishtirok etishi;
- 5.3. Topshirilgan biznes loyihani amalga oshirish uchun so'ralgan mablag' miqdori Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-sonli qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomdagi hajmidan oshmasligi;
- 5.4. Biznes loyihalarni to'liq ishga tushirishning yakuniy muddati bir yilgacha bo'lishi.

## **6. Loyihalarni baholash**

6.1. Tanlovga qatnashish uchun berilgan loyihalar ekspert hakamlar tomonidan o'rganilib, tanlov talablariga va shartlariga tog'ri kelgan holda, O'zbekiston Qishloq xo'jaligi, sanoati va ta'lim sohasi rivoji uchun foydasi tegadigan eng namunaviy loyihalar g'olib deb topiladi.

6.2. Taqdim etilgan loyihalardagi ma'lumotlarning haqqoniyligi va ishonchliligi, tanlov dasturlari vazifalarida belgilangan, kutilayotgan natijalarni to'la va o'z vaqtida sifatli bajarilishiga ilmiy g'oya hamda biznes loyiha mualliflari shaxsan javobgar hisoblanadi.

## **7. Tanlovda ishtirok etish uchun kerakli hujjatlar**

- Biznes reja va xarajatlar smetasi;
- Loyiha taqdimoti;

## **8. G'oliblarni aniqlash va taqdirlash**

7.1. G'oliblarni aniqlashda maxsus komissiya tarkibi tuzilib(1-ilova), ushbu komissiya bayonnomasi bilan g'oliblar ro'yxati e'lon qilinadi. Ushbu bayonnoma qaroriga muvofiq rektor buyrug'i bilan g'oliblar moddiy-ma'naviy rag'batlantiriladi

7.2. Tanlovning baholash mezonlari asosida saralab olingan g'olib ishtirokchilar universitet ma'muriyatining maxsus diplom hamda pul mukofati yoki esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.